



**QORAQALPOQ VOKAL SAN’ATINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

*Jaksi‘muratova Bag‘dagul Koshi‘baevna  
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida Vokal san’ati negizida opera san’atining shakllanganini ko‘rishimiz mumkun. Ustoz-shogird an’anasi ushbu yo‘nalish uchun yangilik hisoblanib, bugungi kunda ham an’anuning davom etayotgani to‘g‘risida ma’lumot berishga harakat qildik. Qoraqalpog‘istonda opera janrining rivojlanishida davlatimiz hamda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlarning yetuk opera kadrlarini yetishtirib chiqarishdagi Oliy toifali maktabni tashkil etilganligini tahlil qilishimiz mumkun. qilinayotgan s’ay-harakatlar zamirida kelajagimizda dunyo arenalarini titratgudek bo‘lg‘usi Bazarbaylar, Abatbaylar va Jenisbeklar hali ko‘p yetishib chiqishiga ishonchimiz komil bo‘ladi.

**Kalt so‘zlar:** Vokal, Opera, Vokalist, artist, san’at, opera san’ati, janr, ustoz-shogird.

## **ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО ВОКАЛЬНОГО ИСКУССТВА**

**Аннотация:** В данной статье мы можем увидеть становление оперного искусства на основе вокального искусства в Республике Каракалпакстан. Традиция мастер-ученик считается новинкой для этого направления, и мы постарались предоставить информацию о продолжении традиции даже сегодня. В развитии оперного жанра в Каракалпакстане можно проанализировать реформы, проводимые нашим государством и Президентом Ш.М.Мирзиёевым, создание высококлассной школы по подготовке зрелых оперных кадров. мы уверены, что в будущем будет еще много Базарбаев, Абатбаев и Женисбеков, которые потрянут арены мира.

**Ключевые слова:** вокал, опера, вокалист, артист, искусство, оперное искусство, жанр, педагог-ученик.

## **STAGES OF FORMATION OF KARAKALPAK VOCAL ART**

**Annotation:** In this article, we can see the formation of opera art on the basis of vocal art in the Republic of Karakalpakstan. The master-disciple tradition is considered a novelty for this direction, and we tried to provide information about the continuation of the tradition even today. In the development of the opera genre in Karakalpakstan, we can analyze the reforms implemented by our state and President Sh.M. Mirziyoev, and the establishment of a high-class

school for training mature opera personnel. we are sure that in the future there will be many more Bazarbays, Abatbays and Jenisbeks who will shake the arenas of the world.

**Keywords:** Vocal, Opera, Vocalist, artist, art, operatic art, genre, teacher-student.

## **KIRISH.**

Dunyoda har qaysi millat borkiy, uning madaniyati va san’ati orqali taniymiz. Masalan, Ispaniyada pomidor jangi “La Tomatina” festivali, Yaponiya shaharlarida har yil fevral oyida o‘tkaziladigan “Qor” festivali, Buyuk Britaniyada o‘tkaziladigan “Kushlar” festivali v.h. lar orqali taniydi.

San’at ham huddi shunga o‘xshaydi, masalan balet san’ati – Fransiyada, teatr san’ati – Gretsiyada, maqom san’ati - O‘zbekiston, jirovchilik san’ati – Qoraqalpog‘iston, opera san’ati deganimizda – Italiya davlatlari qo‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA.**

Mavzu yuzasidan asosan, davlatimiz rahbarining nutqlari, farmon va qarorlaridan havolalar olingan bo‘lib, tegishliligicha havolalar berildi, xususan, Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisdagi nutqi., Ansatbayev N. «Teatr hám aktyor», T – Navro‘z. 2020 y. 36-bet., Doshanova M. Bazarboy Nadirov ijodiy merosiga bir nazar / Muxabbat Doshanova. — Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2019. — № 44. 87-bet., <https://www.lex.uz> manbalari bo‘ldi.

O‘zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filiali talabalari ustoz B.Nadirov maktabi, M.Xojanov maktabi farqlarini bilishi, ular yaratgan maktab faoliyati bugungi kundagi davomchilari haqida tushuncha xosil qilish – suhbu mavzu metodologiyasini tashkil etadi.

## **MUHOKAMA**

Yuqorida keltirilgan san’atlarning ichida bir san’at borkiy, butun dunyoda avj olgan opera san’ati bo‘lib, bizning davlatimizda ham bu san’at o‘ziga xos qiziqishlar markazida turadi.

Ayniqsa, davlatimiz mustaqil deb e’lon qilingach birinchi va amaldagi Prezidentlarimiz tomonidan san’at va madaniyat sohasiga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan madaniyat va san’at sohasi rivoji uchun ellikga yaqin qaror va farmonlar joriy etildi.

Yurtboshimizning «Madaniyat – Mo‘ynoqdan boshlanadi» - degan gaplari biz yoshlarga katta kuch va g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Qoraqalpog‘istonda teatr san’ati 1926 yil 8 noyabr kuni Q.Auyezovning «Tilek jolinda» dramasi bilan ochilgan bo‘lsa, kadrlar yetishmovchiligidagi muammolar bor edi. Shu sababli 1934-1939 yillar moboynida bir guruh qoraqalpoq yoshlari hukmatimiz tomonidan Moskvaga o‘qishga yuboriladi.

1939 yil GITIS studiyasini bitirib kelgan yoshlar teatrda professional aktyorlar bo‘lib ishga kirishdi. Shu yilning o‘zida teatrga K.S.Stanislavskiy nomi berilib, «Qoraqalpoq davlat musiqali drama va komediya teatri» statusi berildi.

Bitiruvchilar ichida Qoraqalpog‘istonidan chiqqan birinchi SSSR xalq artisti A.Shamuratova bo‘lib, teatrimiz sahnalarida, agitbrigadalarda qo‘shiq kuylab yurgan. Ayniqsa, 1957 yil Toshkent shahridagi dekada A.Shamuratovning benefisiga aylangan edi.

Qoraqalpoq vokal san’atini birinchilardan bo‘lib boshlab bergan SSSR xalq artisti Ayimxan Shamuratova bo‘ldi. Undan keyin esa, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Bazarbay Nadirov bo‘ldi. A.Shamuratova Vokal san’atini Qoraqalpog‘istonga olib kirgan bo‘lsa, uni har taraflama yetuk tarizda rivojlantirgan, Qoraqalpoq san’atida o‘zining vokal san’ati bo‘yicha maktabini shakllantira olgan buyuk bariton ovozi sohibi B.Nadirov bo‘ldi.

1937 yil Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus tumani «Oqterak» ovulida dehqon oilasida tavallud topgan.

Qoraqalpoq milliy xalq va zamonaviy akademik qo‘shiqchilik san’atining mohir ijrochisi va targ‘ibotchisi, kuchli va boy kaloritga ega bo‘lgan baritonal ovoz sohibi, hurmatli ustoz, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq artisti, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori, Respublika xalq ta’limi a’lochisi, yosh san’at g‘unchalarining sevimli murabbiysi Bazarboy Nadirov qoraqalpoq elining ardog‘idagi san’atkorlardan edi. Necha yillar davomida o‘zining beqiyos san’ati bilan elga tanilib qo‘shiqlarni kuylash barobarida san’atsevar xalqimizni rus va yevropa kompozitorlarining mumtoz romans va operalarini sahnalaştirish va targ‘ibot qilishda ulkan xizmat ko‘rsatdi.

Bazarbay Nadirovning Japaq Shamuratov nomidagi Nukus davlat san’at mакtabida ishlab yurgan paytlarida uning qo‘lida tahsil olgan, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga mehnati singan san’at arbobi, shuhrat medali va do‘stlik ordenlari sohibi A.Kalliiev, Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan artist D.Xojabergenov, B.Jaqsimuraovalar bo‘ldi.

Ustoz-shogird an’anasi deganimizda albatta baxshi-jirovchilik san’ati birinchi bo‘lib hayolimizda gavdalanadi. Lekin, vokal san’atida bu an’ana birinchilardan bo‘lib boshlanishi yedi, u ham a’lo darajada amalga oshirildi va oshirilib kelinmoqda.

Bazarbay Nadirovning shogirdi Abatbay Kalliiev 1964 yil Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoqtumani “Qozoq-daryo” oiulida tavallud topgan, bugungni kundagi shogirdlari dunyo arenalarida ko‘zga tashlanib, oliy toifali nominatsiya va gran-pri sohiblari hisoblanadi:

O‘zbekiston (2021), Qoraqalpog‘iston (2018), Tatariston (2023), Bashqurdiston (2022) Respublikalari xalq artisti Jenisbek Piyazov;

Qoraqalpoq estradasining bulbuli, «Nihol» davlat mukofoti sovrindori, Qoraqalpog‘istonga xizmat ko‘rsatgan artist, rahmatli Rashid Xojasov;

«Nihol» davlat mukofoti sovrindorlari va xalqaro va respublika miqyosidagi ko‘rik-tanlovlari g‘olib va sovrindorlari: Nao‘rzbek Maxammadiyarov, Sh.Tursinbayev, A.Piyazovlar hisoblanadi.

Abatbay Kalliyevenning shogirdi J.Piyazov 1988 yil 9 mayda Nukus shahrida tug‘ilgan — o‘zbek va qoraqalpoq opera xonandasini (bas), vokalchilar respublika tanlovi, XII “Qozoq romansiyadasi” xalqaro tanlovi, XIII Moskva yosh rus romansi ijrochilari xalqaro tanlovi 1-

o‘rin laureati. Muslim Magomayev nomidagi xalqaro vokal tanloving Gran-pri sovrindori (2012) v.h.

A.Piyazov bo‘lsa Italiyanig Ocimo (Osimo) shahridagi akademiya darte lirika akademiyasida tahlil olmoqda.

Abatbay Kalliyevning bugungni kundagi shogirdlari dunyo arenalarida nomoyon bo‘lib, oliy toifali nominatsiya va gran-pri sohiblari hisoblanadi:

Bazarbay Nadirovning yana bir shogirdi ajoyib bariton ovozi sohibi, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist D.Xojabergenov bo‘lsa, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 maydagi 291-son qarori asosida Nukus shahrida tashkil etilgan Opera san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirish va opera san’ati bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi 24-son bolalar musiqa va san’at maktabi negizida opera san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etilgan bo‘lib, shu maktabning direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

B.Nadirovning yana bir iste’dodli shogirdi Bag‘dagul Jaqsimuratova bo‘lib, O‘zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filialida “Vokal ijrolchiligi” fanidan dars o‘tib, ustozining yo‘lini davom ettirmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ustoz-shogird an’analari asosida Qoraqalpog‘istonda opera san’ati vujudga keldi. Opera san’ati mustaqillikdan oldingi yillarda shakllana boshladi, buning oyqin misoli Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqli teatrda (hozirgi nomi) 1987 yil Ibrayim Yusupovning “Ajiniyaz” librettosiga kompozitor N.Muhammeddinovning tung‘ich “Ajiniyaz” operasi rejissor O.Uzakov va N.Ansatbayevlar tomonidan sahnalashtiriladi.

2013 yilda bo‘lsa Ibrayim Yusupovning “Tumaris” librettosiga kompozitor Q.Zaretdinovning ikkinchi opera rejissor Q.Abdreymov va J.Sultabayevlar tomonidan sahnalashtirildi.

## XULOSA

Qoraqalpog‘istonda opera san’atini rivojlantirish yo‘lida bir qancha amaliy-tashkiliy ishlar amalgalashirilmoqda, boshqa hech qaysi davlatda uchramaydigan dunyoda birdan-bir opera va baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining tashkil etilishi, O‘zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filialining tashkil etilishi va yaqin yillarda Qoraqalpog‘istonda tashkil etilishi kutilayotgan Opera va balet teatri ustoz-shogird an’analaring bugungi avlod uchun yaratayotgan buyuk ne’mati ekanligini unutishga haqqimiz yo‘q.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisdagi nutqi.
2. Ansatbayev N. «Teatr hám aktyor», T – Navro‘z. 2020 y. 36-bet.
3. Doshanova M. Bazarboy Nadirov ijodiy merosiga bir nazar / Muxabbat Doshanova. — Tekst: neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2019. — № 44. 87-bet.
4. <https://www.lex.uz>

## Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mamutov P. A. Obespecheniye professionalnimi kadrami karakalpaskogo gosudarstvennogo teatra //Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya. – 2023. – №. 3 (181). – S. 104-111.
2. Pirnazarov S. M., Mamutov P. A. History And Development Of Karakalpak National Ethnogenesis //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – T. 7. – C. 193-195.
3. Pirnazarov S. M. Qaraqalpaq teatrinin' professionalliqqa o'tiwinde da'slepki adimlar (1930-1939). Ilim hám jámiyet. 62-64-bet.
4. Pirnazarov S. M. A PERIOD OF FORMATION OF THE KARAKALPAK THEATRE (1922-1930). Science and Education in Karakalpakstan. 93-94-bet.